



**LIZINGGA OLINAYOTGAN AVTOTRANSPORT VOSITALARINI SUG‘URTA QILISH  
(JISMONIY SHAXSLAR UCHUN) SHARTNOMASI (OMMAVIY OFERTA)  
\_\_\_\_\_ -SONLI**

20\_\_yil “\_\_” \_\_\_\_\_ sh.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan Litsenziya asosida faoliyatni amalga oshiradigan, keyingi o‘rinlarda “Sug‘urtalovchi” deb ataladigan “O‘zagrosug‘urta” Aksiyadorlik Jamiyati nomidan 20\_\_yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi Boshqaruv raisi o‘rinbosari B.Axadov bir tarafdin va keyingi o‘rinlarda “Sug‘urta qildiruvchi” deb ataladigan F.I.Sh (arizadan tortiladi) ikkinchi tarafdin quyidagi shartlar asosida mazkur sug‘urta shartnomasini tuzdilar:

**I. ShARTNOMA PREDMETI**

Mazkur sug‘urta shartnomasiga muvofiq Sug‘urtalovchi shartnomada shartlashilgan haq (Sug‘urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (Sug‘urta hodisasi) sodir bo‘lganda boshqa tarafga (Sug‘urta qildiruvchiga yoki naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug‘urtalangan avtotransport vositasiga yetkazilgan zararni shartnomada belgilangan summa (Sug‘urta puli) doirasida qoplash (Sug‘urta to‘lash) majburiyatini oladi.

**II. SHARTNOMADA QO‘LLANILADIGAN ATAMALARNING TAVSIFI**

Atama	Ta‘rif
<b>Sug‘urtalovchi</b>	“O‘zagrosug‘urta” Aksiyadorlik Jamiyati
<b>Sug‘urta qildiruvchi</b>	Lizingga olinayotgan avtotransport vositasini sug‘urtalash bo‘yicha Sug‘urta shartnomasini tuzgan va sug‘urta mukofotini to‘lovchi jismoniy shaxs.
<b>Ariza</b>	Lizingga olinayotgan avtotransport vositasini sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta shartnomasini tuzishga asos bo‘ladigan hujjat;
<b>Sug‘urta shartnomasi</b>	Taraflarning yuridik va moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi ofertaga asosan elektron ravishda tuzilgan mazkur sug‘urta shartnomasi (Shartnoma);
<b>Naf oluvchi</b>	Avtotransport vositasini lizingga beruvchi tashkilot (bank muassasasi, Lizing tashkiloti, korxonasi, firma nomi);
<b>Lizingga beruvchi (Naf oluvchi)</b>	Mijoz arizasiga muvofiq lizingga beriladigan avtotransport vositasining egasi– (Arizadan tortiladi);
<b>Lizing oluvchi</b>	Iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish yoki boshqa maqsadida, ma‘lum bir yo‘nalish uchun lizing avtotransport vositasini oluvchi jismoniy shaxslar;
<b>Baholash dalolatnomasi</b>	Lizingga olinayotgan avtotransport vositasini baholanganligi haqidagi Naf oluvchi va Lizingga oluvchi o‘rtalarida tuzilgan baholash dalolatnomasi yoki haqiqiy qiymati;
<b>Lizing shartnomasi</b>	20__yil “__” _____dagi _____ - sonli Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi o‘rtasidagi lizing shartnomasi;
<b>Avtotransport vositasi</b>	Lizing shartnomasida yoki baholash dalolatnomasida va Sug‘urta qildiruvchining arizasida ko‘rsatilgan lizingga olinayotgan avtotransport vositasi;
<b>Sug‘urta polisi</b>	Sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng, sug‘urta qildiruvchiga beriladigan, Sug‘urtalovchining majburiyatlarini kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.
<b>Sug‘urta puli</b>	Sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rilgan zarar qiymatini Sug‘urtalovchi tomonidan qoplashning eng yuqori miqdori.



<b>Sug‘urta mukofoti</b>	Sug‘urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs (qonun yoki shartnoma asosida Sug‘urta qildiruvchi bilan bog‘liq shaxs) tomonidan Sug‘urtalovchiga, lizingga olinayotgan avtotransport vositasini sug‘urtalash uchun sug‘urta shartnomasiga asosan to‘lanadigan mablag‘.
<b>Sug‘urta hodisasi</b>	Sug‘urtalovchi tomonidan, sug‘urta puli doirasida sug‘urta tovonini to‘lab berish majburiyatini keltirib chiqarishiga olib kelgan Sug‘urta shartnomasida ko‘zda tutilgan voqeaning yuz berishi.
<b>Tabiiy ofatlar</b>	Shartnomada ko‘rsatilgan tabiiy ofatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 501-sonli qaroriga asosan sharhlanadi.
<b>Sug‘urta tovonini</b>	Sug‘urta hodisasi natijasida lizingga olinayotgan avtotransport vositasiga yetkazilgan zararni qoplash uchun Sug‘urtalovchi tarafidan sug‘urta puli chegarasida Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lanadigan pul mablag‘i.
<b>Fors-major holati</b>	Favqulodda va oldindan ko‘rilmagan xarakterda bo‘lib, tomonlar majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadi, hamda ularning xohish irodasiga bog‘liq bo‘lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo‘lmaydigan holat.
<b>Sug‘urtaning qilish hududi</b> <b>amali</b>	O‘zbekiston Respublikasi

### III. SUG‘URTA OBYEKTI

Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo‘lmagan sug‘urtalangan avtotransport vositasining sug‘urta hodisasi ro‘y berishi oqibatida zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq mulkiy manfaatlari Sug‘urta obyekti hisoblanadi.

### IV. SUG‘URTA HODISASI VA ISTISNOLAR

#### 4.1. Mazkur shartnomaga ko‘ra quyidagilar sug‘urta hodisasi hisoblanadi:

Avtotransport vositasining O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘xtab turgan holatda yoki harakatda bo‘lgan vaqtida

- **avtotransport vositasini olib qochish; o‘g‘rilik; bosqinchilik; yong‘in; portlash; YTH (yo‘l transport hodisasi); jismlarning urilishi;**
  - **tabiiy ofatlar** (tezligi 20 m/s dan yuqori bo‘lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko‘chki, do‘l, juda kuchli qor yog‘ishi yoki kuchli sovuq);
  - **uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari.**
- natijasida zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishi.

**4.2. Quyidagi holatlarda yuzaga kelgan hodisalar natijasida avtotransport vositasining zararlanishi yoki yo‘qotilishi sug‘urta hodisasi deb tan olinmaydi va ular bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lanmaydi:**

a) Avtotransport vositasini yo‘lning notekis va sifatsiz joylarida harakatlanishi yoki o‘tkir buyumlarni bosib o‘tishi natijasida avtotransport vositasini shina (balonlari)ni zararlanishi;

b) Sug‘urta qildiruvchi, haydovchi yoki sug‘urtalangan avtotransport vositasida bo‘lgan boshqa shaxslarning atayin (qasddan) amalga oshirgan xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida sug‘urta hodisasini yuzaga kelishi, ammo qasddan qilingan harakatlar ular tomonidan zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida, shuningdek uchinchi shaxslar hayoti, salomatligi, qadr-qimmatini, or-nomusini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan hollar bundan mustasno.



d) avtotransport vositasining avtomobil yo‘lida turli hayvonlar chiqib qolishi natijasida sodir bo‘lgan YTH natijasida zararlanishi (avtotransport vositasida hayvonlarning urib yuborilishi natijasida sodir bo‘lgan YTH isbotlangan holatlar bundan mustasno);

e) avtotransport vositasini mastlik holatida (alkogol, giyohvand moddalar iste‘mol qilgan va h.k.), sezgirlik va e‘tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta‘sirida, yo‘l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan darajadagi charchoqlik va betoblik holatida boshqarish;

f) tegishli toifadagi avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvoohnomasi bo‘lmagan shaxslarga avtotransport vositasini boshqarish uchun topshirish;

g) avtotransport vositasidan foydalanishda uni ekspluatatsiya qilish, yong‘in havfsizligi, yonuvchi va portlovchi modda hamda predmetlarni tashish va saqlash qoidalari buzilishi;

h) avtotransport vositasidan o‘quv-mashq, musobaqa yoki sinov maqsadlarida foydalanish;

i) avtotransport vositasi, uning alohida ehtiyot qismlarining doimiy ta‘sir qiluvchi ekspluatatsiya omillari (tabiiy eskirish, chirish, sirtining buzilishi, yorilish, zanglash va hokozolar) natijasida zararlanishi, shuningdek, sug‘urta hodisasi yoki ob-havo ta‘siri natijasida tashqi ko‘rinishining eskirishi va sifatining buzilishi;

j) haydovchi avtotransport vositasini boshqarishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Yo‘l harakati qoidalari”da belgilangan svetoforming ta‘qiqlovchi ishoralariga, temir yo‘l kesishmalari orqali harakatlanish qoidaloriga, to‘xtash va to‘xtab turish qoidaloriga, shu bilan birga, yuqorida keltirilgan qoidaning 82, 83, 86, 88 – bandlari talablariga rioya qilmasligi, avtotransport vositasini boshqarish chog‘ida telefondan noqonuniy foydalanishi;

k) sodir bo‘lgan hodisa vakolatli tashkilotlar (DYHXX, IIO, YoXX) da belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bo‘lsa;

l) sug‘urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo‘yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo‘q qilib tashlanishi oqibatida ko‘rilgan zarar.;

m) avtotransport vositasini ishlab chiqargan korxonadan tomonidan o‘rnatilgan ehtiyot qismlarning sifatsiz bo‘lganligi aniqlanganda;

n) Sug‘urta hodisasi deb da‘vo qilinayotgan tabiiy ofatlar gidrometeorologiya markazidan olingan ma‘lumotlar bo‘yicha tasdig‘ini topmagan holatda;

o) Sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi tomonidan sodir bo‘lgan hodisa to‘g‘risida belgilangan muddatlarda Sug‘urtalovchiga habar berilmaganda;

p) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 274-moddasi birinchi xat boshi 2-kichik bandida belgilangan talablarning Sug‘urta qildiruvchi tomonidan bajarilmasligi;

q) Sug‘urta qildiruvchi yoki uning ishonchli vakili tomonidan sug‘urta tovonini olish maqsadida berilgan ma‘lumotlar yolg‘onligi aniqlanishi;

r) Sug‘urta qildiruvchi tomonidan avtotransport vositasini boshqarish uchun berilgan ishonchnoma belgilangan muddatda IIB YHXBning ro‘yxatga olish bo‘limidan ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bo‘lsa;

s) Sug‘urta hodisasi O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ro‘y bergan bo‘lsa;

t) Sug‘urta hodisasi haqida belgilangan muddatda xabar berilmasa (O‘z.Res. FKning 951-moddasida belgilangan tartibda);

u) amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda..

**4.3. Quyidagi siyosiy tavsifga ega bo‘lgan hodisalar natijasida avtotransport vositasini zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishi uchun Sug‘urtalovchi javobgarlik olib bormaydi:**

urush va harbiy harakatlar (urush e‘lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat‘iy nazar), g‘alayon, inqilob, qo‘zg‘olon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanish.

## V. SUG‘URTA MUKOFOTINI TO‘LASH TARTIBI

5.1. Sug‘urta mukofoti bir yilga sug‘urta pulidan yillik **1.0 %** miqdorida bo‘lib, sug‘urta muddati uchun qo‘shimcha qiymat solig‘isiz **raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi)** so‘mni tashkil etadi.

Mazkur shartnoma bo‘yicha barcha hisobotlar so‘mda olib boriladi.

Sug‘urta mukofoti Sug‘urta qildiruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadi.

5.2. Naf oluvchi, Sug‘urta qildiruvchi tomonidan lizing shartnomasidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘liq bajargani haqida Sug‘urtalovchiga yozma ravishda xabar bersa, Sug‘urtalovchi sug‘urta



mukofotini ishlatilmay qolgan qismini qayta hisoblab chiqadi.

5.3. Ishlatilmagan sug‘urta mukofoti, Sug‘urta qildiruvchi tomonidan lizing mablag‘lari muddatidan oldin qaytarilgan kundan boshlab, shartnoma amal qilgan kunlarga mutanosib ravishda hisoblanadi. Sug‘urtalovchi ishlab topilmagan Sug‘urta mukofotini Sug‘urta qildiruvchining hisob raqamiga o‘tkazib beradi.

5.4. Sug‘urta mukofotining ishlatilmay qolgan qismi, naf oluvchining, Sug‘urta qildiruvchi majburiyatlarini to‘liq bajarib bo‘lganligini tasdiqlovchi yozma xabarnomasini bergan kundan boshlab, Sug‘urtalovchi tomonidan 5 (besh) bank kuni ichida to‘lab beriladi.

5.5. Sug‘urta mukofotining ishlatilmay qolgan qismi qaytarilishida Sug‘urtalovchi o‘zining harajatlarini chegirib qoladi. Sug‘urtalovchining chegirib qolinadigan harajatlari miqdori sug‘urta mukofotining 25 foizi darajasida belgilanadi.

5.6. Sug‘urta javobgarligi darajasi Sug‘urtalovchi tomonidan to‘langan har bir sug‘urta tovonini miqdoriga mutanosib ravishda kamayib boradi. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘langanda sug‘urta javobgarligi darajasini dastlabki darajagacha yetkazish mumkin.

#### **Sug‘urta puli va javobgarlik darajasi.**

5.7. Mazkur shartnoma bo‘yicha sug‘urta puli raqamda (son va so‘z bilan) so‘m (Arizadan tortiladi), Ilovada ko‘rsatilgan avtotransport vositasining haqiqiy qiymatidan 100% hisobida olinadi.

5.8. Sug‘urtalovchi tomonidan zararni qoplash uchun to‘langan sug‘urta tovonini javobgarlik darajasini kamaytiradi. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘langanda, javobgarlik darajasini mazkur shartnomadagi javobgarlik darajasigacha yetkazish mumkin.

5.9. Lizinga olinayotgan avtotransport vositasi haqiqiy qiymatidan yuqori qiymatga baholangan bo‘lsa, u holda Sug‘urtalovchi sug‘urta puli doirasida javobgarlik olib boradi.

## **VI. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SUG‘URTA POLISINI BERISH TARTIBI**

6.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va sug‘urta muddati mobaynida amal qiladi. Lizing shartnomasiga qo‘shimcha kiritilib, shartnomaning muddati uzaytirilsa, hamda tomonlarning kelishuviga asosan qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lansa, mazkur shartnomaning amal qilish muddati uzaytirilishi mumkin.

6.2. Sug‘urtalovchining majburiyatlari shartnomada belgilangan sug‘urta mukofoti (qaltisliklar turlari va darajasiga qarab o‘rnatilgan) Sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.3. Sug‘urta mukofoti shartnomada belgilangan muddatdan keyin kelib tushsa, Sug‘urtalovchining Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha javobgarligi Sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining hisob-raqamiga kelib tushgan kundan boshlanadi hamda sug‘urta polisida belgilangan sanagacha amalda bo‘ladi.

6.4. Sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta polisi yozib beriladi.

6.5. Sug‘urta shartnomasida sug‘urta mukofotini bosqichma-bosqich to‘lash nazarda tutilmaydi.

6.6. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta polisini yo‘qotgan taqdirda, uning yozma ravishdagi arizasiga asosan Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta polisining dublikatini yozib beradi. Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta polisining dublikatini olgandan keyin yo‘qolgan polis haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. Sug‘urta mukofotining Sug‘urtalovchi hisob raqamiga kelib tushgan kuni sug‘urta mukofotining to‘langan kuni hisoblanadi.

6.8. Sug‘urta mukofoti shartnomada ko‘rsatilgan bosqich uchun to‘lashda navbatdagi bosqichi uchun sug‘urta mukofoti to‘lash muddati o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa va o‘tkazib yuborilgan muddat ichida sug‘urta hodisasi ro‘y bergan bo‘lsa, bu holat bo‘yicha sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod qilinadi.

6.9. Shartnoma taraflarning yozma xabarnomalariga asosan har qanday holatda to‘xtatilishi mumkin. Bunda xabarnoma beruvchi, Naf oluvchining yozma roziligini olgan holda, taraflarni shartnoma bekor bo‘lishidan 30 (o‘ttiz) kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

6.10. Shartnoma quyidagi hollarda o‘z-o‘zidan muddatidan oldin bekor bo‘ladi:

– Sug‘urtalovchining Sug‘urta qildiruvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha majburiyatlari to‘liq bajarilganida;



- Sug‘urta muddati tugaganda;
- Sud qaroriga asosan shartnoma haqiqiy emas deb topilganda;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilab qo‘yilgan boshqa hollarda.

6.11. Shartnoma kuchga kirganidan so‘ng sug‘urta hodisasi sodir bo‘lish ehtimoli yo‘qolgan bo‘lsa va sug‘urta havfining mavjud bo‘lishi sug‘urta hodisasining boshqa holatlari bo‘yicha tugagan bo‘lsa, shartnoma muddatidan oldin bekor qilinadi.

6.12. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda, Sug‘urta qildiruvchining yozma arizasiga asosan Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta mukofotining ishlatilmay qolgan qismi qayta hisoblab chiqiladi.

## VII. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 7.1. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:

- a) Sug‘urta qildiruvchini sug‘urta shartlari bilan tanishtirish;
- b) Ro‘y bergan hodisa sug‘urta hodisasi deb tan olingan taqdirda, sug‘urta shartnomasida o‘rnatilgan tartib va muddatlarda da‘voni ko‘rib chiqish hamda sug‘urta tovonini to‘lab berish;
- d) Sug‘urta qildiruvchi va naf oluvchi sug‘urtaga oid masalalarda maslaxatlar berish;
- e) Sug‘urta polisini va/yoki uning dublikatini shartnomada belgilangan muddatlarda Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchiga yozib berish ;
- f) Sug‘urtalangan avtotransport vositasi, Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni sir saqlash.

### 7.2. Sug‘urtalovchining huquqlari:

- a) Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchidan sug‘urta shartnomasida belgilangan majburiyatlarining bajarilishini talab qilish;
- b) Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta shartnomasi tuzilishidan avval Sug‘urtalovchiga yolg‘on ma‘lumotlar berganligi aniqlansa, sug‘urta shartnomasining bekor qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish;
- d) Sug‘urta tovonini to‘lashni ushbu shartnomaga hamda amaldagi qonunchilikka asosan belgilangan tartibda rad etish;
- e) sug‘urta qaltisliklari ortishiga sabab bo‘ladigan holatlar to‘g‘risida xabardor qilinganda sug‘urta shartnomasi shartlariga o‘zgartirish kiritish yoki qo‘shimcha sug‘urta mukofotini to‘lashni talab qilish;
- f) zarur hollarda sug‘urtalangan avtotransport vositasiga yetkazilgan zararni baholash ekspertiza tashkilotlarida qayta baholash va ular tomonidan berilgan hujjatlar (hisobot, mutaxassis xulosasi, dalolatnoma va boshqalar) asosida sug‘urta tovonini to‘lash;
- g) sug‘urta qildiruvchidan baholash tashkilotlarining hisobotlariga asosan yaroqsiz deb topilgan va avtotransport vositasini ta‘mirlash jarayonida yangilariga almashtirilgan ehtiyot qismlarini talab qilib olish.

### 7.3. Sug‘urta qildiruvchining majburiyatlari:

- a) Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi to‘g‘risida 3 (uch) kundan kechikmay Sug‘urtalovchiga yozma xabar qilish;
- b) Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urtalovchiga sug‘urta da‘vosini ko‘rib chiqish uchun mazkur shartnomaning 8.3. bandida ko‘rsatilgan barcha hujjatlarni taqdim qilish;
- d) Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda o‘ziga ma‘lum bo‘lgan va sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini hamda uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug‘urta xavfi) ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan barcha holatlarni sug‘urtalovchiga xabar qilish;
- e) Sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorda sug‘urta mukofotini to‘lash;
- f) Sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urta qildiruvchiga ma‘lum bo‘lgan holatlardan boshqa muhim o‘zgarishlar mavjud bo‘lib ushbu o‘zgarishlar sug‘urta xavfi ortishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, bu haqida sug‘urtalovchiga darhol xabar qilish;
- g) Sug‘urtalangan avtotransport vositasini zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishini oldini olish uchun imkoniyat darajasida barcha choralarni ko‘rish, Sug‘urtalovchi tomonidan berilgan oldini olish choralari o‘z ichiga oluvchi ko‘rsatmalarga amal qilish;
- h) Sug‘urtalovchining yozma roziligisiz avtotransport vositasi ehtiyot qismlarini bir-biridan ajratmaslik va hech qanday ta‘mirlash ishlarini olib bormaslik (haydovchi va yo‘lovchi havfsizligini ta‘minlash yoki vakolatli tashkilotlar buyruq va farmoyishlarini bajarish uchun zaruriyat tug‘ilgan holatlar bundan mustasno);





i) zararlangan avtotransport vositasini yoki uning qismlarini sotish yoki qayta ishlash, metallolomga topshirishni sug‘urtalovchi bilan kelishib amalga oshirish;

j) Sug‘urtalovchining yozma rozilgisiz to‘lov kafolatlari yoki majburiyatlarini o‘z zimmasiga olmaslik;

k) avtotransport vositasini yaroqli holatda saqlash bo‘yicha doimo oldini olish choralari o‘tkazish.

#### **7.4. Sug‘urta qildiruvchining huquqlari:**

a) Sug‘urtalovchidan sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida sug‘urta masalasida maslahatlar olish;

b) Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urtalovchidan mazkur shartnomada belgilangan tartibda sug‘urta tovonini olish;

d) Sug‘urta polisini Sug‘urtalovchidan olish;

e) Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda holis ekspertizani o‘tkazishni talab qilish;

f) Sug‘urta shartnomasiga Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda qo‘shimcha va o‘zgartishlar qilish (qo‘shimcha kelishuv imzolagan holda);

#### **7.5. Naf oluvchining majburiyatlari:**

a) Mazkur shartnoma shartlarini belgilangan muddatlarda bajarilishini ta‘minlash;

b) Sug‘urtalangan avtotransport vositasini zararlanganligi, nobud bo‘lganligi yoki yo‘qotilganligi ma‘lum bo‘lishi bilan bu haqida darhol Sug‘urtalovchiga yozma xabar berish;

d) Yuridik manzili va bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda 10 kun ichida Sug‘urtalovchiga yozma xabar berish.

#### **7.6. Naf oluvchining huquqlari:**

a) Mazkur shartnomaga asosan Sug‘urtalovchidan sug‘urta polisini berishni talab qilish;

b) Sug‘urta qildiruvchi tomonidan navbatdagi sug‘urta mukofoti (bosqichma-bosqich to‘lov shaklida) to‘lanmagan taqdirda, Sug‘urta qildiruvchining o‘rniga Sug‘urtalovchiga sug‘urta mukofoti to‘lab berish;

d) Sug‘urta tovonini to‘lash tartibini Sug‘urtalovchi bilan kelishish.

## **VIII. SUG‘URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO‘LASH TARTIBI**

8.1. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi sodir bo‘lgan hodisa haqida Sug‘urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma beradi.

8.2. Sug‘urta tovonini Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga uning yozma ravishdagi arizasi va mazkur shartnomaning 8.3 – bandida ko‘rsatilgan hujjatlar hamda Sug‘urtalovchi tomonidan tuzilgan sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomaga asosan to‘lanadi.

#### **8.3. Sug‘urta qildiruvchi o‘z arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:**

##### **8.3.1. avtotransport vositasi yo‘qotilganda:**

a) ushbu hodisa bo‘yicha tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar organlari, Yong‘in xavfsizligi xizmati va boshqalar)ning ma‘lumotnomalari;

b) Sug‘urta polisi.

##### **8.3.2. avtotransport vositasi zararlangan yoki nobud bo‘lganda:**

a) tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar organlari, Yong‘in xavfsizligi xizmati va boshqalar) ning sodir etilgan hodisa va uning tafsilotlari to‘g‘risidagi qaror yoki tuzgan bayonnomasining tasdiqlangan nusxasi;

b) YTHda haydovchining qonida alkogol bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun sud-tibbiyot ekspertizasining xulosasi;

d) Tegishli lisenziyaga ega bo‘lgan baholovchi tashkilotning baholash hisoboti;

e) Sug‘urta polisi nusxasi.

##### **8.3.3. Yuqoridagi har ikkala holda quyidagi hujjatlarning ham nusxalari ilova qilinishi shart:**

a) Haydovchining pasporti;

b) Haydovchilik guvohnomasi;

d) Avtotransport vositasining qayd etish guvohnomasi;

e) **Yo‘l varaqasi (agar yuridik shaxs bo‘lsa);**

f) Sug‘urtalangan avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma;

Shuningdek, zararlangan avtotransport vositasining fotosurat yoki videotasmalar.



8.4. Sug‘urtalangan avtotransport vositasini zararlanishi yoki yo‘qotilishini keltirib chiqaruvchi Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, hodisa tafsilotlari o‘rganiladi.

8.5. Sug‘urtalovchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar miqdori aniqlanadi va ma‘lumotnoma tuziladi. Ma‘lumotnoma tuzishda Sug‘urtalovchi hodisa tafsiloti to‘g‘risida tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar organlari, Yong‘in xavfsizligi xizmati, Gidrometeorologiya xizmati va boshqalar) dan hodisa bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni so‘rab olishga, shuningdek sodir etilgan hodisa tafsiloti va sabablarini xolis aniqlashtirishga haqli.

8.6. Tuzilgan ma‘lumotnomalar Sug‘urta hodisasi tan olinganligi yoki tan olinmaganligini bildirmaydi va ma‘lumotnomalar asosida sug‘urta to‘voni to‘lanmaydi.

8.7. Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirishi va zarur hollarda, hodisa tafsilotiga tegishli bo‘lgan boshqa hujjatlarni talab qilishi mumkin.

8.8. Avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar miqdorini va Sug‘urta hodisasi ro‘y berganligini isbotlash Sug‘urta qildiruvchi yoki naf oluvchi zimmasida bo‘ladi.

8.9. Sug‘urta to‘voni haqiqiy yetgan zarar miqdorida, lekin shartnomada belgilangan Sug‘urta pulidan oshmagan holda belgilanadi.

8.10. Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqib, sug‘urta hodisasi ro‘y berganligi yoki sug‘urta hodisasi ro‘y bermaganligi haqida qaror qabul qiladi. Qarorda sug‘urta to‘voni miqdori belgilanadi.

8.11. Sug‘urtalovchining sug‘urta to‘vonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni rad etish to‘g‘risidagi qarori Sug‘urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) ular sug‘urta to‘vonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni so‘rab murojaat etganlaridan keyin 15 (o‘n besh) kundan kechiktirmay xabar qilinadi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o‘z ichiga oladi.

8.12. Sug‘urta to‘voni sug‘urta hodisasini tan olish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida Naf oluvchining roziligi binoan Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to‘lab beriladi. Sug‘urta hodisasi natijasida Sug‘urta qildiruvchi (jismoniy shaxs bo‘lsa) vafot etgan taqdirda, Sug‘urta to‘voni uning vorisiga shartnomada belgilangan tartibda to‘lab beriladi.

8.13. Sug‘urta to‘voni sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urta qildiruvchining yoki Naf oluvchining hisob raqamiga (jismoniy shaxs bo‘lsa, shaxsiy hisob raqamiga) pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

8.14. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda, Sug‘urtalangan avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar boshqa sug‘urtalovchilar tomonidan qoplangan bo‘lsa, sug‘urta to‘voni zararni qoplanmay qolgan qismi uchun to‘lab beriladi.

8.15. Sug‘urta to‘vonini aniqlashda quyidagi harajatlar inobatga olinmaydi:

- Avtotransport vositasining shikastlanishi oqibatida uning tovar ko‘rinishi yo‘qotilidan ko‘rilgan zarar;
- Sug‘urta hodisasi bilan bog‘liq bo‘lmagan avtotransport vositasini ta‘mirlash narxi;
- Sug‘urtalangan avtotransport vositasiga texnik xizmat ko‘rsatish narxi;
- Eskirganligi, yaroqsizligi tufayli avtotransport vositasini tiklash yoki qayta jihozlash, ya‘ni ayrim qismlari, detallari hamda anjomlarini ta‘mirlash yoxud almashtirish bilan bog‘liq ishlar narxi.

8.16. Mazkur shartnomada sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganida sug‘urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) u ko‘rgan zararni sug‘urta pulining sug‘urta qiymatiga bo‘lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplaydi. (Fuq.Kod.-936 modda)

8.17. Avtotransport vositasi to‘liq yo‘qotilganda, Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug‘urta to‘vonini sug‘urtalangan avtotransport vositasining sug‘urta puli miqdorida to‘laydi.

8.18. Avtotransport vositasini yaxshilash bilan bog‘liq sarf-harajatlar, Sug‘urta qildiruvchi tomonidan zararni baholash ishlari uchun qilingan sarf-harajatlar Sug‘urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

8.19. Avtotransport vositasining eskirish foizi bo‘yicha miqdori va sug‘urta polisida kelishilgan franshiza miqdori har bir sug‘urta hodisasi bo‘yicha sug‘urta to‘voni miqdoridan chegirib qolinadi.

8.20. Sug‘urta hodisasi natijasida avtotransport vositasiga yetkazilgan zararning ma‘lum qismi aybdor yoki boshqa shaxslar tomonidan qoplangan bo‘lsa, sug‘urtalovchi tomonidan to‘lab beriladigan sug‘urta to‘voni zararning qoplangan qismi miqdorida kamaytiriladi.

## IX. SUBROGASIYA

9.1. Sug‘urta qildiruvchining Sug‘urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to‘langan summa doirasida Sug‘urtalovchiga o‘tadi. Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish



huquqi uning tomonidan Sug‘urta qildiruvchi, Naf oluvchi va zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

9.2. Sug‘urta qildiruvchi, Sug‘urtalovchiga o‘ziga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug‘urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

9.3. Sug‘urta qildiruvchi, Sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o‘zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug‘urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘liq yoki uning tegishli qismini to‘lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to‘langan sug‘urta tovonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

## X. NIZOLARNI KO‘RIB ChIQISH TARTIBI

Sug‘urta shartnomasidan kelib chiqadigan Sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasidagi barcha nizolar o‘zaro kelishuviga asosan, kelishish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda hal qilinadi.

## XI. BOSHQA ShARTLAR

11.1. Shartnoma bo‘yicha taraflar shartnomaning ilovalarini va unga tegishli hujjatlarni uchinchi tarafga taraflarning yozma roziligisiz bermaydi va ushbu shartnomaga taalluqli bo‘lgan barcha ma'lumotlarni sir saqlaydilar.

11.2. Shartnoma sug‘urtalovchi, sug‘urta qildiruvchi va naf oluvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri bir xil huquqiy kuchga ega.

## XII. TOMONLARNING YuRIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

<b>“Sug‘urtalovchi” nomidan</b>	<b>“Sug‘urta qildiruvchi”</b>	<b>“Naf oluvchi”</b>
<b>Nomi:</b> “O‘zagrosug‘urta” AJ <b>Manzili:</b> Toshkent sh, Chilonzor tumani, 19-kv, 61/2- uy <b>Bank:</b> “Mikrokreditbank” ATB <b>MFO:</b> 00433 <b>STIR:</b> 201042345	<b>F.I.Sh:</b> <b>Pasport seriya va raqami:</b> <b>Manzili:</b> <b>JShShIR:</b>	<b>Nomi: Tshkilot</b> <b>Bank nomi</b> <b>MFO:</b>